

**BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK OQIBATLARI****Jamolova Feruza Olimjonovna**

Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi

33-maktabi amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Travmatik hodisalarni boshdan kechirgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganishning dolzarb usullardir. Shunday qilib, zo'ravonlikni boshdan kechirgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish va travmatik tajribalar oqibatlarini baholash usullarini ishlab chiqish ushbu bolalarni psixologik reabilitatsiya qilish uchun juda dolzarbdir.

Kalit so'zlar: jismoniy zo'ravonlik, psixologik zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, stress, ishonchsizlik, depressiya, o'zini past baxolash, jismoniy va ruhiy salomatlik

O'zbekiston Prezidenti uzoq kutilgan “Bolalarni barcha turdagi zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonunni imzoladi. Qonunni ishlab chiqish bilan 2023-yil oktabr oyidan boshlab prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi va YUNISEF shug'ullanib kelayotgandi. Qonunning asosiy maqsadi zo'ravonlikning oldini olish, undan jabr ko'rgan bolalar bilan ishlash va oilalarda farovonlikni ta'minlash tizimini yaratishdan iborat. Qonun 2025-yil 15-maydan kuchga kiradi. Qonunga ko'ra, bolaning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati hamda qonun bilan himoyalangan boshqa huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan va uning asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan harakatlar yoki harakatsizlik, shu jumladan, internetdan foydalangan holda sodir etilgan harakatlar (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo'ravonlik deb e'tirof etiladi. Jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) bolalarga nisbatan



zo‘ravonlikning shakllari bo‘lib, qonun bilan taqiqlanadi va ta‘qib qilinadi, deyiladi hujjatda.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik turlari

Jismoniy zo‘ravonlik — bolalarga turli darajadagi tan jarohatlarini yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli ahvolda bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatmaslik.

Jinsiy zo‘ravonlik — bolaga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan harakatlar qilish orqali uning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, shu jumladan:

- nomusga tegish;
- jinsiy ehtiyojni zo‘rlilik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish;
- jinsiy aloqa qilishga majburlash;
- 16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish;
- voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega bo‘lgan harakatlarga ijrochi sifatida jalb qilish;
- voyaga yetmagan shaxsni jalb qilgan holda qo‘shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish;
- aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yoxud bolaning ojizligidan foydalangan holda shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish;
- shahvoning shilqimlik, shuningdek, qonunda taqiqlangan, shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan har qanday boshqa jinsiy harakatlar.

Ruhiy zo‘ravonlik — bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek, bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligidan xavotir



uyg'otadigan, o'zini himoya qila olmasligiga olib keladigan yoki ruhiy salomatligiga zarar yetkazadigan harakatlar (harakatsizlik).

G'amxo'rlik ko'rsatmaslik — zarur imkoniyatlarga, bilim va ko'nikmalarga, shu jumladan, buning uchun tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta'lim, ijtimoiy va boshqa xizmatlardan) foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan ota-ona (ular o'rnini bosuvchi yoki bolaga qarab turgan shaxslar) tomonidan bolaning sog'lig'i, jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishining buzilishiga olib kelishi.

Bolaning asosiy ehtiyojlari — bolaning to'laqonli rivojlanishi, jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy va boshqa zarur sharoitlar bilan ta'minlash, xavfsizlik, ta'lim olish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish va imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Bolalarni ekspluatatsiya qilish — boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan, odam savdosi, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek, nikohga yoki er-xotin bo'lib yashashga majburlash, ma'lum bir diniy ta'lim olishga undash, har qanday shaklda mehnatga majburlash uchun jismoniy yoki ruhiy ta'sir o'tkazish kiradi.

Ta'qib qilish (bulling) — bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanishi, u bilan har qanday muloqotni rad etishi, uning mulkini tortib olishi va zarar yetkazishi, jismoniy, ruhiy yoki aqliy xususiyatlarini omma oldida muhokama qilishi, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishi yoki sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazishi, shu jumladan, internet orqali amalga oshiriladigan uzoq muddatli ruhiy va jismoniy tajovuzkor ta'sir o'tkazishidir.

Hujjatda davlat bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni ko'rishi, shu jumladan, bola va uning oilasini qo'llab-quvvatlashi hamda bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini



aniqlash va oldini olish, zo‘ravonlik holatlari haqida xabar berish, ushbu holatlarni tergov qilish, aybdorlarni javobgarlikka tortishning muqarrarligini ta‘minlash, zo‘ravonlik qurbonlarini reabilitatsiya qilish, ularning huquqlarini tiklash va ijtimoiy moslashtirishni ta‘minlash mexanizmlarini yaratishi kerakligi belgilangan. Ta‘lim dasturlari bolalarga nisbatan va bolalar o‘rtasidagi zo‘ravonlikning, jumladan bullingning oldini olishga, shuningdek bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga e‘tiborsizlik munosabatini bartaraf etishga ko‘maklashishi lozim.

Ta‘lim muassasalarida intizomiy jazo sifatida zo‘ravonlikning har qanday shakllari, jumladan jismoniy jazolar va boshqa shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo‘llash taqiqlanadi.

Ta‘lim muassasalarida bolalarga nisbatan va bolalar o‘rtasidagi zo‘ravonlikning, jumladan bullingning oldini olish, shuningdek zo‘ravonlik holatlari yuzasidan choralar ko‘rish bo‘yicha dasturlar joriy etilishi kerak. Bunday chora-tadbirlar ta‘lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga, ustavlari va ish rejalariga kiritiladi. Ta‘lim muassasalarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish uchun mas‘ul shaxslar tayinlanadi. Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish uchun ta‘lim muassasasi xodimlari ichki tartib-qoidalarga, o‘quvchilar, ota-onalar va pedagogik jamoa a‘zolari bilan munosabatda pedagogik etika qoidalariga qat’iy rioya qilishlari, barcha ta‘lim oluvchilarga teng munosabatda bo‘lishni ta‘minlashlari, sinfdagi psixologik vaziyatni baholashlari va yaxshilashlari, o‘quvchilar bilan suhbatlar o‘tkazishlari hamda ota-onalarga maslahat berish uchun psixologlar va psixolog-inspektorlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi shart.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фурманов И.А., Аладьин А.А., Фурманова Н.В. Психологическая особенности детей, лишенных родительского попечительства. – Мн.: Тесей, 1999. – 160 с.
2. Сафонова Т.Я., Цымбал Е.И Жестокое обращение с детьми и- его последствия; // Жестокое обращение с детьми: сущность, причины, социально- правовая защита. Мi, 1993.
3. Холл З. Последствия сексуальных и психологических травм детства// Психол. журнал, № 5. – т.13, 1992. – С.120-129.
4. Соколова Е.Т. Влияние на самооценку нарушений эмоциональных контактов между родителем и ребенком и формирование аномалий личности // Семья и формирование личности. М.: МПУ им. М.ВШомонова, 1981.